



Axmedova Shoxista

Jizzax davlat pedagogika universiteti, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Omon Matjonning “Charli Chaplinni eslab” she’rini mahorat bilan tarjima qilgani asliyat bilan solishtirib tarjima qilganini tadqiq qilingan. Shoirning Y.Yevtushenko tarjimasidagi she’ri asliyatga nihoyatda mos keladi, chunki mutarjim Omon Matjonning ruhini hamda she’rning badiiy mohiyatini to’g’ri anglagan holda ruschalashtirgan. “Charli Chaplinni eslab” she’ri komik aktyor vafot etgan paytida yozilganligi ko’rsatilgan.*

Kalit so’zlar: *charli Chaplin, tarjima, g’arb adabiyoti, qiyoslab ko’rsatish,*

Shu bilan birga O. Matjonni mohir tarjimon sifatida ham yaxshi bilamiz. Jumladan, turli millat shoirlari: Shiller, Bodler, Yevgeniy Yevtushenko, Rasul Hamzatov, Yustinas Martsinyakivichyus, Shandor Petefi, Berdi Kerboboyev, Suhrob Tohir, Ibroyim Yusupovlar ijodidan tarjimalar qildi. Shoirning shaxsiy arxivida Fridrix Shillerning “Qo’lqop”, “Nechuk shirin baxt ekan” hamda Sharl Bodlarning “Oshiqlar bodasi” she’rlari ijodkor tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilingan nusxasining qo’lyozmasi saqlanadi. Bu tarjima she’rlar mashinkada terilgan bo’lib, sarg’aygan, o’qishga yaroqli, turli imloviy va punktuatsion xatolar ko’zga tashlanadi. Masalan, Sh.Bodlerdan qilingan “Oshiqlar bodasi” tarjimasining qo’lyozmasi, ya’ni mashinkada terilgan varianti saqlangan[1;45].

Oshiqlar bodasi

(Sharl Bodler)

Bu tong tasviriga ojizdir kalom!

Arg’umoq na darkor, tut limmo-lim jom.

Mast-shodon uchaylik, surur yorimiz

Ne makonlar izda chang-g’uborimiz.

Darhaqiqat, badiiy tarjima ham alohida bir san’at hisoblanadi. Tarjimon bilan o’zga millat ijodkori ruhiyati orasida qandaydir uyg’unlik, ruhiy yaqinlik bo’lishi lozim, deyishadi tarjima nazariyasi bilan shug’ullanuvchi olimlarimiz. Shoir esa o’zining tarjimonlik faoliyati xususida shunday deydi: “Tarjimalarga kelsak, men juda usta tarjimon emasman. Muayyan vaqt uchun, ijodiy jarayon ruhiga bir “Hormang!” tarzida kuchim yetgancha Shiller, Bodler va boshqa shoirlardan ozgina tarjimalar qildim. Yevgeniy Yevtushenko bilan juda yaqin ijodiy hamkorligimiz bor. U mening she’rlarimni rus tiliga tarjima qildi. Hatto xonadonimizda bir necha bor mehmon ham bo’lgan. Juda yaxshi eslayman, u bilan birinchi marotaba Toshkentda uchrashganimizda shunday degan edi: “Men minglab yulduzlarni kashf etgan buyuk munajjim Mirzo Ulug’bek tug’ilgan ona zaminni, uning odamlarini bir ko’rsam edi, – deb orzu qilardim. –





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Ulug‘bek, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi buyuklar tug‘ilgan yurt odamlari qanday ekan? Ular qanday tilda gaplashar ekan? Ular qanday millat ekan? – deb qiziqar edim. Nihoyat, men shunday qutlug‘ zaminni ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ldim!” – degan edi.

Shu ma’noda men tarjima qilgan shoirlarning ruhini bir qadar topa olish kerak, deb o‘ylayman. Balki shuning uchundir, ular o‘zbek badiiy tarjima adabiyotida o‘z o‘rnini topa bildi. Xususan, Yevgeniy Yevtushenkoning O‘zbekistondagi eng ishonchli tarjimoni men bo‘lib qoldim. U menga shunday vakolat berdi: “Faqat Omon Matjon mening she‘rlarimni tarjima qilsin!” Yevgeniy Yevtushenko bir kelganida, uning istagi bilan O‘zbekistonning go‘zal shaharlarini birgalikda aylanib chiqdik”[2;56]. Ayni paytda Y.Yevtushenko ham O. Matjon she‘rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Shoir shaxsiy arxivida Y.Yevtushenko deklamatsiyasi va tarjimasida “Charli Chaplinni eslab” she‘rining ovoqli nusxasi saqlab qoling. U bu she‘rni Moskvada katta zalda o‘qib bergan. Ushbu she‘r 1978-yilda yozilgan. Quyida undan parcha va tarjimon Y. Yevtushenko o‘g‘irgan tarjima nusxadan misol:

Charli Chaplin o‘ldi.

Xayol ekranini

Bexos qora tortdi. Musiqa tindi.

Qarz berilgan nurni olib ketdilar –

Tunlari Chaplinsiz yashaymiz endi.

Charli Chaplin o‘ldi.

Xabar kelgan on

Tegramizga boqdik xavotir olib:

Katta, jiddiy zotlar ko‘p-ku! Olishsak,

Biz ham chiqaramizmi Charlidek g‘olib?

Do‘stlar,

Talash-tortish dunyo bu dunyo,

Davra tarqatishdir gulxan sovushi.

Kimga shlyapasi tegarkan uning,

Hassasi kimga-yu kimga kovushi.[3;43]

Y. Yevtushenko tarjimasini:

ВСПОМИНАЯ ЧАРЛИ ЧАПЛИНА

Чарли Чаплина нет

Чернотой затянуло экран,

словно свет на экране,

который был в долг человечеству дан,





взяли сразу
с большими процентами, –
со слезами,
как будто бы с многими лишними центами.

Чарли Чаплина нет.
Огляделась вокруг наша скорбь
и увидела столько великих,
но слишком серьезных!

Если чья-то улыбка
ягненком
прискачет к нам с гор,
будет легче бороться со скукой,
взорвав застоявшийся воздух.

Наша жизнь –
перетягивание каната.

О, как нового Чаплина человечеству надо!
Кому шляпа досталась его, кому трость,
а кому –
его шлепающие ботинки...

А улыбка – кому?
Неужели он гость
лишь на миг?
И в неравном погиб поединке?
А потом
сам поверил
бесхитростной шутке своей,
побежав за толпою
счастливых детей...

«Раз я это сказал,
а ведь я не обманщик,
не плут,–
может, правда орехи там всем раздают?»

Так и я говорю
не из хитрости,
не для наживы:
«Чарли Чаплины живы!»





И хочу побежать
вслед за собственной шуткой куда-то.
Может, правда?
Но если обман –
все равно это свято[4;90].

Shoirning Y.Yevtushenko tarjimasidagi she'ri asliyatga nihoyatda mos keladi, chunki mutarjim Omon Matjonning ruhini hamda she'ning badiiy mohiyatini to'g'ri anglagan holda ruschalashtirgan. "Charli Chaplinni eslab" she'ri komik aktyor vafot etgan paytida yozilgan. Shoir G'arbdan chiqqan Charli Chaplinni Sharq adabiyotidagi komik xalqona obraz Nasriddin Afandi bilan tenglashtiradi. Har ikkisi ham o'zlarini go'l qilib ko'rsatsalar-da, aslida ularning asl niyati shumliklari va quvliklari ostiga berkingan. Shoir quvnoq Charli obrazini katta, jiddiy zotlarga qarama-qarshi qo'yadi. Charlining jasadi yo'qolishi voqeasini eslab, ijodkor XX asrni "tajovuz asri" deb ataydi. Ya'ni dunyoning bo'linishi, monopoliyalar, katta yurtlarning kichik millatlarni ezishi, insonning qadrsizlanishini biroz satirik va kinoyaviy uslubda hajv qiladi. Rus tarjimoni asliyatdagi asl hajviy ma'noni to'g'ri anglab, o'z ona tiliga mahorat bilan o'girgan.

Omon Matjon she'rlari Y.Yevtushenko, M.Sinelnikova, R.Farhodiy, Y.Reyn, A.Tyurin, Y.Otreshko kabi tarjimonlar tomonidan rus tiliga o'girilgan. Binobarin, shoirning Toshkentda "Зов феникса" ("Haqqush qichqirig'i") nomi bilan chop etilgan bo'lsa, Moskvada 1988-yilda "Знак любви" ("Sevgi ramzi") sarlavhasi bilan bosmadan chiqqan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азимов С. Абадият. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 150 б.
2. Матжон О. Иймон ёғуси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 381 б.
3. Матжон О. Куёш соати. – Тошкент: Ёш гвардия, 1974. – 34 б.
4. Матжон О. Минг бир ёғду. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 176 б.
5. Матжон О. Очиқ деразалар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 70 б.
6. Матжон О. Ҳаққуш қичқириғи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 145 б.

